“Maxam-Chirchiq” AJning
2024-yil 24-iyuldagi
378-sonli buyrug’iga
7-ilova

# “Maxam-Chirchiq” AJda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish USLUBIYOTI

Chirchiq-2024-yil.

**“Maxam-Chirchiq” AJda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish USLUBIYOTI**

| 1-bob. Umumiy qoidalar | 1-боб. Умумий қоидалар |
| --- | --- |
| 1. Mazkur Uslubiyot “Maxam-Chirchiq” AJda (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) ichki normativ hujjati hisoblanadi va Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki normativ hujjatlar bajarilishini monitoring va nazorat qilish tartibi hamda standartlarini belgilaydi.<br>2. Mazkur Uslubiyotda monitoring deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi samaradorligini baholash hamda Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat deganda tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.<br>3. Mazkur Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Jamiyatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.<br>4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish (keyingi o‘rinlarda – monitoring va nazorat) Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o‘rinlarda – ichki nazorat tuzilmasi) tomonidan amalga oshiriladi.<br>5. Monitoring va nazoratning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:<br>Jamiyat faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;<br>korrupsiyaga oid va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbiq etilgan tartib-taomillarning samaradorligini oshirish va baholash;<br>kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali Jamiyatning korrupsiyaga qarshi komplaens tizimini takomillashtirish;<br>Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishini tahlil qilish;<br>Jamiyat faoliyatida korrupsiya xavf-xatarlar indikatorlarini aniqlash;<br>manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash | 1. Мазкур Услубиёт “Maxam-Chirchiq” АЖда (кейинги ўринларда – Жамият) ички норматив ҳужжати ҳисобланади ва Жамиятда коррупцияга қарши курашиш бўйича белгиланган тартиб-таомиллар ва коррупцияга қарши курашиш бўйича қабул қилинган ички норматив ҳужжатлар бажарилишини мониторинг ва назорат қилиш тартиби ҳамда стандартларини белгилайди.<br>2. Мазкур Услубиётда мониторинг деганда коррупцияга қарши курашиш тизимининг амал қилиши самарадорлигини баҳолаш ҳамда Жамият фаолиятида коррупциявий хавф-хатарларни камайтириш мақсадида текшириш, назорат деганда танқидий ўрганиш кўринишида амалга оширилиши мумкин бўлган коррупцияга қарши курашиш тизими ҳолатининг таҳлили тушунилади.<br>3. Мазкур Услубиёт Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари, Жамиятнинг ички норматив ҳужжатлари талабларига мувофиқ, шунингдек, коррупцияга қарши курашиш бўйича илғор халқаро амалиётни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган.<br>4. Коррупцияга қарши курашиш тартиб-таомилларининг самарадорлигини мониторинг ва назорат қилиш (кейинги ўринларда – мониторинг ва назорат) Жамиятнинг Коррупцияга қарши ички назорат тузилмаси (кейинги ўринларда – ички назорат тузилмаси) томонидан амалга оширилади.<br>5. Мониторинг ва назоратнинг асосий мақсадлари қуйидагилар ҳисобланади:<br>Жамият фаолиятининг коррупцияга қарши қабул қилинган талабларга мувофиқлигини текшириш;<br>коррупцияга оид ва бошқа ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, коррупцияга қарши амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг етарлилиги ва коррупцияга қарши тадбиқ этилган тартиб-таомилларнинг самарадорлигини ошириш ва баҳолаш;<br>камчиликларни аниқлаш ва уларни бартараф этиш орқали Жамиятнинг коррупцияга қарши комплаенс тизимини такомиллаштириш;<br>Жамиятнинг коррупцияга қарши ички |

va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tahlil qilish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini aniqlash;

Jamiyatda avvalgi oʻtkazilgan monitoring natijalari va korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillari, xizmat tekshiruvlari, ichki audit tekshiruvlari, boshqa nazorat choralari va ular doirasida taqdim etilgan tavsiyalarga rioya qilinishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish rejasida tasdiqlangan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishini nazorat qilish;

6. Ushbu Uslubiyot maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**kontragent (shartnomaviy hamkor)** – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**korrupsiyaviy xatti-harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yoʻlida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor boʻlishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qogʻoz, boshqa koʻrinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun toʻlovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda oʻz xizmat vazifalaridan noқonuniy foydalanish;

**korrupsiya** – shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga qarshi tizim** – korrupsiyaviy harakatlarning, Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan oʻz faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta’minlash boʻyicha kompleks chora-tadbirlar;

**relevant xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar toʻqnashuvi haqidagi axborotdan iborat boʻlgan axborot;

**xodim** – Jamiyat bilan mehnat munosabatlariga

норматив ҳужжатлари ва тартиб-таомилларига риоя қилинишини таҳлил қилиш;

Жамият фаолиятида коррупция хавф-хатарлар индикаторларини аниқлаш;

манфаатлар тўқнашувини ўз вақтида аниқлаш ва тартибга солишга қаратилган чора-тадбирларнинг амалга оширилишини таҳлил қилиш;

Жамиятнинг коррупциявий хавф-хатарларини камайтиришга қаратилган бошқа тартиб-таомилларининг бажарилмаганлигини аниқлаш;

Жамиятда аввалги ўтказилган мониторинг натижалари ва коррупцияга қарши курашиш тартиб-таомиллари, хизмат текширувлари, ички аудит текширувлари, бошқа назорат чоралари ва улар доирасида тақдим этилган тавсияларга риоя қилиниши, шунингдек, коррупцияга қарши курашиш режасида тасдиқланган бошқа тадбирларнинг амалга оширилишини назорат қилиш;

6. Ушбу Услубиёт мақсадларида қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

**контрагент (шартномавий ҳамкор)** – Жамият билан шартномавий муносабатларга (меҳнат муносабатлари бундан мустасно) киришган ҳар қандай юридик ёки жисмоний шахс;

**коррупциявий хатти-ҳаракатлар** – ходим томонидан бевосита ёки билвосита шахсан ёки учинчи шахслар орқали пора берувчи манфаатлари йўлида ҳаракат ёки ҳаракатсизлик учун моддий манфаатдор бўлиши, шу жумладан пул, қимматбаҳо қоғоз, бошқа кўринишдаги мулк ва мулкий ҳуқуқлар, мулкий ҳарактердаги хизматлар олиш, талаб қилиш, ундириш, таклиф қилиш ёки бериш, пора бериш ва/ёки олиш ёки бунда воситачилик қилишда, расмиятчиликларни соддалаштириш учун тўловлар ундириш (пора олиш) ва бошқа ноқонуний мақсадларда ўз хизмат вазифаларидан ноқонуний фойдаланиш;

**коррупция** – шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш;

**коррупцияга қарши тизим** – коррупциявий ҳаракатларнинг, Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши

| | |
|---|---|
| kirishgan shaxs. | курашиш соҳасидаги қонунчилиги ва Жамиятнинг коррупцияга қарши курашиш масалаларига доир ички ҳужжатлари бузилишининг олдини олиш, Жамият ходимлари томонидан ўз фаолиятини профессионал ва хулқ-атвор жиҳатдан юксак даражада амалга оширилишини таъминлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар;<br>**релевант хабар** – Жамиятдаги коррупциявий хатти-ҳаракатлар ва (ёки) манфаатлар тўқнашуви ҳақидаги ахборотдан иборат бўлган ахборот;<br>**ходим** – Жамият билан меҳнат муносабатларига киришган шахс. |
| **2-bob. Monitoring va nazorat oʻtkazish yoʻnalishlari va tadbirlari** | **2-боб. Мониторинг ва назорат ўтказиш йўналишлари ва тадбирлари** |
| 7. Jamiyatda quyidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha korrupsiyaga qarshi monitoring oʻtkaziladi:<br>idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;<br>ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining yoki uning kontragentlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari toʻgʻrisidagi axborot mavjudligi monitoringi;<br>Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi.<br>8. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazorati quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshiriladi:<br>korrupsiyaga qarshi dasturlar, yoʻl xaritalari ijrosi ustidan nazorat;<br>Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat. | 7. Жамиятда қуйидаги асосий йўналишлар бўйича коррупцияга қарши мониторинг ўтказилади:<br>идоравий коррупцияга қарши тизим тизимининг актуаллиги ва унинг қонунчилик талаблари, шу жумладан, халқаро стандартлар талабларига мувофиқлиги мониторинги;<br>оммавий ахборот воситаларида Жамият ходимларининг ёки унинг контрагентларининг коррупциявий хатти-ҳаракатлари тўғрисидаги ахборот мавжудлиги мониторинги;<br>Жамият ходимларининг коррупцияга қарши асосий тамойил ва талаблардан хабардорлиги мониторинги.<br>8. Жамиятдаги коррупцияга қарши тизимнинг назорати қуйидаги йўналишлар бўйича амалга оширилади:<br>коррупцияга қарши дастурлар, йўл хариталари ижроси устидан назорат;<br>Жамиятдаги коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоя этилиши устидан назорат. |
| **3-bob. Korrupsiyaga qarshi idoraviy tizim monitoringini oʻtkazish tartibi** | **3-боб. Коррупцияга қарши идоравий тизим мониторингини ўтказиш тартиби** |
| 9. Korrupsiyaga qarshi kurashish idoraviy tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi oʻrinlarda – Ichki nazorat tuzilmasi) tomonidan doimiy ravishda Oʻzbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashga oid qonunchiligi va boshqa korrupsiyaga oid talablarni (masalan, Oʻzbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi | 9. Коррупцияга қарши курашиш идоравий тизимининг актуаллиги ва унинг қонунчилик талаблари, шу жумладан, халқаро стандартлар талабларига мувофиқлиги мониторинги Коррупцияга қарши ички назорат тузилмаси (кейинги ўринларда – Ички назорат тузилмаси) томонидан доимий равишда Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашга оид қонунчилиги ва бошқа коррупцияга оид талабларни (масалан, Ўзбекистон |

| | |
|---|---|
| qarorlari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ko‘rsatmalari, xalqaro va chet el tashkilotlari tavsiyalari) kuzatib borish yo‘li bilan amalga oshiriladi.<br>Bunda, zarurat tug‘ilganda Ichki nazorat tuzilmasi monitoring yakunlari bo‘yicha Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish, ichki idoraviy hujjatlarni o‘zgartirish kiritadi yoki yangi hujjatlar, chora-tadbirlar loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamiyat rahbariga kiritadi.<br>10. Ommaviy axborot vositalarida Jamiyat xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi axborot mavjudligi monitoringi, Jamiyat axborot xizmati tomonidan doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish orqali amalga oshiriladi.<br>Monitoring natijasida xodimga aloqador relevant xabar aniqlanganda Jamiyatdagi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatda belgilangan tartibda harakat qilinadi.<br>11. Jamiyat xodimlarining asosiy korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligini tekshirish Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan yarim yilda bir marta amalga oshiriladi.<br>Xodimlarning xabardorligi mazkur uslubiyotga 1-ilovada keltirilgan xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimiga muvofiq o‘tkazilib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:<br>tanlov asosda Jamiyat xodimlarining tekshiruvda ishtirokini aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning minimal soni Jamiyatning turli tuzilmalaridan turli lavozimlarni egallagan 6 (olti) kishi);<br>korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va Jamiyat talablariga muvofiq savollar ro‘yxatini tuzish (vaziyatli topshiriqlar - keyslarni yechish bilan) savollarning minimal soni 10 ta, test, ochiq savollar yoki boshqa shaklda tuzilishi mumkin);<br>javob/yechimlarni taqdim qilish uchun tanlangan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;<br>natijalarni tahlil qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish talablari va tartib-taomillarini tushunish va ularga rioya qilishdagi qiyinchiliklarni xodimlar bilan muhokama qilish.<br>12. O‘tkazilgan monitoring va uning natijalari to‘g‘risidagi axborot 2-ilovaga muvofiq shaklda jurnalga kiritiladi. | Республикаси коррупцияга қарши курашиш Миллий кенгаши қарорлари, Коррупцияга қарши курашиш агентлигининг кўрсатмалари, халқаро ва чет эл ташкилотлари тавсиялари) кузатиб бориш йўли билан амалга оширилади.<br>Бунда, зарурат туғилганда Ички назорат тузилмаси мониторинг якунлари бўйича Жамиятдаги коррупцияга қарши тизимини такомиллаштириш, ички идоравий ҳужжатларни ўзгартириш киритади ёки янги ҳужжатлар, чора-тадбирлар лойиҳасини ишлаб чиқади ва тасдиқлаш учун Жамият раҳбарига киритади.<br>10. Оммавий ахборот воситаларида Жамият ходимларининг коррупциявий хатти-ҳаракатлари тўғрисидаги ахборот мавжудлиги мониторинги, Жамият ахборот хизмати томонидан доимий равишда оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларни кузатиш орқали амалга оширилади.<br>Мониторинг натижасида ходимга алоқадор релевант хабар аниқланганда Жамиятдаги ходимларининг коррупциявий хатти-харакатлари ва одоб-аҳлоқ қоидаларини бузиш ҳолатлари устидан хизмат текширувлари ўтказиш бўйича ички идоравий ҳужжатда белгиланган тартибда ҳаракат қилинади.<br>11. Жамият ходимларининг асосий коррупцияга қарши тамойиллар ва талаблар тўғрисида хабардорлигини текшириш Ички назорат тузилмаси томонидан ярим йилда бир марта амалга оширилади.<br>Ходимларнинг хабардорлиги мазкур услубиётга 1-иловада келтирилган ходимларининг коррупцияга қарши тамойиллар ва талаблардан хабардорлигини текшириш тизимига мувофиқ ўтказилиб, қуйидагиларни ўз ичига олади:<br>танлов асосда Жамият ходимларининг текширувда иштирокини аниқлаш (сўровда қатнашадиган ходимларнинг минимал сони Жамиятнинг турли тузилмаларидан турли лавозимларни эгаллаган 6 (олти) киши);<br>коррупцияга қарши курашиш тамойиллари ва Жамият талабларига мувофиқ саволлар рўйхатини тузиш (вазиятли топшириқлар - кейсларни ечиш билан) саволларнинг минимал сони 10 та, тест, очиқ саволлар ёки бошқа шаклда тузилиши мумкин);<br>жавоб/ечимларни тақдим қилиш учун |

| | |
|---|---|
| | танланган ходимларга назорат саволларини юбориш;<br>натижаларни таҳлил қилиш ва коррупцияга қарши курашиш талаблари ва тартиб-таомилларини тушуниш ва уларга риоя қилишдаги қийинчиликларни ходимлар билан муҳокама қилиш.<br>12. Ўтказилган мониторинг ва унинг натижалари тўғрисидаги ахборот 2-иловага мувофиқ шаклда журналга киритилади. |
| **4-bob. Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi tizimning nazoratini amalga oshirish** | **4-боб. Корхонадаги коррупцияга қарши тизимнинг назоратини амалга ошириш** |
| 13. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatga muvofiq hisobot tuzish davomida amalga oshiriladi.<br>14. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan funksiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan munosabatlarga nisbatan Jamiyatda joriy etiladigan va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.<br>15. Jamiyat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat perimetriga quyidagi xavfli jarayonlar kiritilishi mumkin:<br>xaridlar bo‘yicha faoliyat;<br>sovg‘alar, xizmat safarlari xarajatlari;<br>faoliyati nazorat qilinuvchi tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik;<br>moliyaviy mablag‘larni sarflanishi;<br>personalni boshqarish (kadrlarni tanlash, tayinlash, lavozimini xizmat oshirish, mukofotlash va boshqa ko‘rinishdagi rag‘batlantirish).<br>16. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boriladigan faoliyat jarayonlarining ko‘rsatilgan ro‘yxati har yili korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash natijalariga ko‘ra Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan ko‘rib chiqiladi va agar lozim bo‘lsa, korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo‘lgan yoki Jamiyat uchun dolzarb bo‘lmagan jarayonlar nuqtai-nazaridan, Jamiyat rahbari va | 13. Корхонанинг коррупцияга қарши курашиш дастурлари, йўл хариталари ижроси устидан назорат коррупциуага қарши кураш тизимининг ҳолати тўғрисидаги ҳисоботни шакллантириш ва тақдим этиш бўйича ички идоравий ҳужжатга мувофиқ ҳисобот тузиш давомида амалга оширилади.<br>14. Коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоя этилиши устидан назорат Корхонадаги коррупцияга қарши курашиш тизимини ташкил қиладиган функция, тартиб-таомиллар, коррупцияга қарши курашиш мақсадида коррупциявий хавф-хатарларга энг кўп мойил бўлган муносабатларга нисбатан Корхонада жорий этиладиган ва амалга ошириладиган чора-тадбирларга нисбатан амалга оширилади.<br>15. Корхона фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда Коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоуа этилиши устидан назорат периметрига қуйидаги хавфли жараёнлар киритилиши мумкин:<br>харидлар бўйича фаолият;<br>совғалар, хизмат сафарлари харажатлари;<br>фаолияти назорат қилинувчи ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорлик;<br>молиявий маблағларни сарфланиши;<br>персонални бошқариш (кадрларни танлаш, тайинлаш, лавозимини хизмат ошириш, мукофотлаш ва бошқа кўринишдаги рағбатлантириш).<br>16. Коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоя этилиши устидан назорат олиб бориладиган фаолият жараёнларининг кўрсатилган рўйхати ҳар йили коррупцияга оид хавф-хатарларни баҳолаш натижаларига кўра Ички назорат тузилмаси томонидан кўриб чиқилади ва агар лозим бўлса, коррупция нуқтаи назаридан хавфли бўлган ёки Корхона учун долзарб |

Jamiyatning tegishli bo‘limlari bilan kelishilgan holda, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali tuzatish kiritiladi.

17. Bir yoki bir nechta xavf-xatarli jarayonlarga nisbatan korrupsiyaga qarshi nazorat davriy oraliqda, lekin Jamiyatning korrupsiyaga qarshi monitoring va nazorat rejasiga muvofiq har chorakda kamida 1 (bir) marta amalga oshiriladi.

18. Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi ikki kalendar yilga mo‘ljallab Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan joriy yilning 15 yanvariga qadar shakllantiriladi va ushbu Uslubiyotda ko‘rsatilgan (15 va 16-bandlar) Jamiyatning barcha jarayonlarini, tekshiriladigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, tegishli chorakda tekshirilishi kerak bo‘lgan xavf-xatar jarayonlarining ketma-ketligi va taqsimlanish jarayoni Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ichki idoraviy hujjatida ko‘rsatilgan, mehnat resurslari bilan ta’minlagan holda qonunbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish kanallari yoki boshqa usullar orqali, rahbariyatdan olingan joriy ko‘rsatmalarga ko‘ra Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan belgilangan tartibda xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha jarayonlarning qoldiq xavf darajasiga qarab amalga oshiriladi.

19. Tayyorlangan Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi 31 yanvarga qadar Jamiyat rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

20. Jamiyatda rejadan tashqari Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat choralari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

agar Jamiyat rahbarining tegishli buyrug‘i mavjud bo‘lsa;

Jamiyatda o‘tkazilgan boshqa tekshiruvlar (shu jumladan rasmiy tekshiruvlar, ichki auditorlik tekshiruvlari va boshqalar) davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanganda;

Jamiyatning aloqa kanallari orqali tegishli xabar olingan taqdirda.

21. Nazorat tadbirlari tekshiruv shaklida o‘tkazilib, shu jumladan, korrupsiyaviy xatti-harakatlarning indikatorlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi kerak, ular doirasida quyidagi tartib-taomillar ham amalga oshirilishi мумкин:

Jamiyat tomonidan tuzilgan shartnomalar ma’lumotlarini tovarlarni qabul qilish va topshirish hujjatlari yoki xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish hujjatlari bilan solishtirish;

бўлмаган жараёнлар нуқтаи-назаридан, Корхона раҳбари ва Корхонанинг тегишли бўлимлари билан келишилган ҳолда, ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш орқали тузатиш киритилади.

17. Бир ёки бир нечта хавф-хатарли жараёнларга нисбатан коррупциуага қарши назорат даврий оралиқда, лекин Корхонанинг коррупцияга қарши мониторинг ва назорат режасига мувофиқ ҳар чоракда камида 1 (бир) марта амалга оширилади.

18. Коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоуа этилиши устидан назорат режаси икки календарь йилга мўлжаллаб Ички назорат тузилмаси томонидан жорий йилнинг 15 январига қадар шакллантирилади ва ушбу Услубиётда кўрсатилган (15 ва 16-бандлар) Корхонанинг барча жараёнларини, текшириладиган даври ва текширув муддатларини ўз ичига олиши керак. Шу билан бирга, тегишли чоракда текширилиши керак бўлган хавф-хатар жараёнларининг кетма-кетлиги ва тақсимланиш жараёни Корхонанинг коррупциявий хавф-хатарларни аниқлаш ва баҳолаш бўйича ички идоравий ҳужжатида кўрсатилган, меҳнат ресурслари билан таъминлаган ҳолда қонунбузарликлар тўғрисида хабар бериш каналлари ёки бошқа усуллар орқали, раҳбариятдан олинган жорий кўрсатмаларга кўра Ички назорат тузилмаси томонидан белгиланган тартибда хавф-хатарларни баҳолаш натижалари бўйича жараёнларнинг қолдиқ хавф даражасига қараб амалга оширилади.

19. Тайёрланган Коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоуа этилиши устидан назорат режаси 31 январга қадар Корхона раҳбари томонидан тасдиқланиши керак.

20. Корхонада режадан ташқари Коррупцияга қарши талаблар ва тартиб-таомилларга риоуа этилиши устидан назорат чоралари қуйидаги ҳолларда амалга оширилиши мумкин:

агар корхона раҳбарининг тегишли буйруғи мавжуд бўлса;

Корхонада ўтказилган бошқа текширувлар (шу жумладан расмий текширувлар, ички аудиторлик текширувлари ва бошқалар) давомида коррупциуавий хавф-хатарлар аниқланганда;

Корхонанинг алоқа каналлари орқали тегишли хабар олинган тақдирда.

21. Назорат тадбирлари текширув шаклида

tovarlarni haqiqiy sotib olish va ulardan foydalanish yoki xizmatlar ko‘rsatish, ishlarning bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni ularning miqdori va sifati bilan tegishli shartnoma va hujjatlarda belgilangan tartibda solishtirish;

kontragentni yoki Jamiyatda ishlashga nomzodni tekshirish natijalariga asoslangan xulosada aks ettirishning to‘liqligini, tahlil qilish uchun taqdim etilgan va axborot manbasining mazmunini qayd qiluvchi hujjatlar tarkibidagi ma’lumotlarning to‘liqligini tekshirish, shuningdek, kontragent yoki ishlashga nomzodning shartnomada ko‘rsatilgan ma’lumotlari va tekshiruvdan o‘tgan shaxsning ma’lumotlarining muvofiqligini tekshirish;

kontragent va Jamiyat, shu jumladan, muvofiqlashtiruvchi shaxslar tomonidan shartnoma boshqa ma’muriy hujjatlar imzolovchilarining vakolatlari mavjudligini tekshirish, taqdim etilgan hujjatlarni vakolatli shaxslarning imzolari bilan vizual ravishda mosligini solishtirish;

kontragentning rekvizitlarini va tegishli shartnoma bo‘yicha summani buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtirish;

Jamiyat yoki kontragent xodimlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarida tuzatish, o‘chirish, soxtalashtirish belgilari yo‘qligini tekshirish;

qonun hujjatlariga va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq talab etiladigan ommaviy axborot manbalarida e’lonlarning mavjudligini tekshirish (raqobatlashuv xarid qilish tartib-taomillarining e’lon qilinganligi to‘g‘risida ma’lumot va boshqalar);

paydo bo‘layotgan masalalar bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot va izohlar olish uchun Jamiyat xodimlari bilan suhbat.

22. Nazorat tadbirlari yakunida ma’lumotnoma tuziladi (keyingi o‘rinlarda- Ma’lumotnoma deb yuritiladi), u kirish, tavsiflovchi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga olishi lozim va ularda, odatda, quyidagilar ko‘rsatiladi:

**Kirish qismida:**

Har bir vazifa va tartib-taomillar uchun nazoratning boshlanish va tugallanish sanalari;

nazorat o‘tkazilgan vazifa va tartib-taomillar ro‘yxati;

nazorat o‘tkazilgan vazifa va tartib-taomillarni bajarishga mas’ul bo‘lgan bo‘limlar va shaxslar ro‘yxati;

Hisobotni tuzish uchun mas’ul xodimning F.I.Sh.

**Tavsiflovchi qismida:**

nazorat o‘tkazilgan har bir vazifa va tartib-

ўтказилиб, шу жумладан, коррупциявий хатти-ҳаракатларнинг индикаторларини аниқлашга қаратилган бўлиши керак, улар доирасида қуйидаги тартиб-таомиллар ҳам амалга оширилиши мумкин:

Корхона томонидан тузилган шартномалар маълумотларини товарларни қабул қилиш ва топшириш ҳужжатлари ёки хизматлар кўрсатиш, ишларни бажариш ҳужжатлари билан солиштириш;

товарларни ҳақиқий сотиб олиш ва улардан фойдаланиш ёки хизматлар кўрсатиш, ишларнинг бажарилиши тўғрисидаги ҳисоботларни уларнинг миқдори ва сифати билан тегишли шартнома ва ҳужжатларда белгиланган тартибда солиштириш;

контрагентни ёки Корхонада ишлашга номзодни текшириш натижаларига асосланган хулосада акс эттиришнинг тўлиқлигини, таҳлил қилиш учун тақдим этилган ва ахборот манбасининг мазмунини қайд қилувчи ҳужжатлар таркибидаги маълумотларнинг тўлиқлигини текшириш, шунингдек, контрагент ёки ишлашга номзоднинг шартномада кўрсатилган маълумотлари ва текширувдан ўтган шахснинг маълумотларининг мувофиқлигини текшириш;

контрагент ва Корхона, шу жумладан, мувофиқлаштирувчи шахслар томонидан шартнома бошқа маъмурий ҳужжатлар имзоловчиларининг ваколатлари мавжудлигини текшириш, тақдим этилган ҳужжатларни ваколатли шахсларнинг имзолари билан визуал равишда мослигини солиштириш;

контрагентнинг реквизитларини ва тегишли шартнома бўйича суммани бухгалтерия ҳисоби маълумотлари билан солиштириш;

Корхона ёки контрагент ходимлари томонидан тақдим этилган ҳужжатларида тузатиш, ўчириш, сохталаштириш белгилари йўқлигини текшириш;

қонун ҳужжатларига ва Корхонанинг ички ҳужжатларига мувофиқ талаб этиладиган оммавий ахборот манбаларида эълонларнинг мавжудлигини текшириш (рақобатлашув харид қилиш тартиб-таомилларининг эълон қилинганлиги тўғрисида маълумот ва бошқалар);

пайдо бўлаётган масалалар бўйича қўшимча маълумот ва изоҳлар олиш учун Корхона ходимлари билан суҳбат.

| | |
|---|---|
| taomillar bo‘yicha tanlov amalga oshirilishi usuli va tanlash hajmi;<br>Jamiyat korrupsiyaga qarshi tizimining aniqlangan qoidabuzilishlari va kamchiliklari, shu jumladan, kamchiliklarning paydo bo‘lishi yoki rivojlanishiga hissa qo‘shgan sabablar va sharoitlar.<br>**Yakuniy qismida:**<br>nazorat o‘tkazilgan har bir vazifa va tartib-taomillarda korrupsiya xatarlarining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida xulosa;<br>O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilgan normalari, Jamiyatning ichki hujjatlari ko‘rsatilgan asosiy qoidabuzarliklar;<br>nazorat o‘tkazish vaqtida aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar;<br>23. Ma’lumotnomaga kiritilgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar, havolalar va ko‘chirmalar nusxalari(iloji bo‘lsa) ilova qilinishi kerak.<br>24. Ma’lumotnoma Jamiyat rahbariga taqdim etiladi hamda o‘tkazilgan nazorat to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga muvofiq shaklda Jurnalga kiritiladi. | 22. Назорат тадбирлари якунида маълумотнома тузилади (кейинги ўринларда - Маълумотнома деб юритилади), у кириш, тавсифловчи ва уакуний қисмларни ўз ичига олиши лозим ва уларда, одатда, қуйидагилар кўрсатилади:<br>**Кириш қисмида:**<br>Ҳар бир вазифа ва тартиб-таомиллар учун назоратнинг бошланиш ва тугалланиш саналари;<br>назорат ўтказилган вазифа ва тартиб-таомиллар рўйхати;<br>назорат ўтказилган вазифа ва тартиб-таомилларни бажаришга масъул бўлган бўлимлар ва шахслар рўйхати;<br>Ҳисоботни тузиш учун масъул ходимнинг Ф.И.Ш.<br>**Тавсифловчи қисмида:**<br>назорат ўтказилган ҳар бир вазифа ва тартиб-таомиллар бўйича танлов амалга оширилиши усули ва танлаш ҳажми;<br>Корхона коррупцияга қарши тизимининг аниқланган қоидабузилишлари ва камчиликлари, шу жумладан, камчиликларнинг пайдо бўлиши ёки ривожланишига ҳисса қўшган сабаблар ва шароитлар.<br>**Якуний қисмида:**<br>назорат ўтказилган ҳар бир вазифа ва тартиб-таомилларда коррупциуа хатарларининг мавжудлиги ёки мавжуд эмаслиги ҳақида хулоса;<br>Ўзбекистон Республикаси қонунчилигининг бузилган нормалари, Корхонанинг ички ҳужжатлари кўрсатилган асосий қоидабузарликлар;<br>назорат ўтказиш вақтида аниқланган қоидабузарлик ёки камчиликларни бартараф этиш бўйича тавсиуалар;<br>23. Маълумотномага киритилган маълумотларни тасдиқловчи ҳужжатлар, ҳаволалар ва кўчирмалар нусхалари(иложи бўлса) илова қилиниши керак.<br>24. Маълумотнома Корхона раҳбарига тақдим этилади ҳамда ўтказилган назорат тўғрисидаги маълумот 1-иловага мувофиқ шаклда Журналга киритилади. |
| **5-bob. Yakuniy qoidalar** | **5-боб. Якуний қоидалар** |
| 25. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.<br>26. Monitoring va nazorat yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalarni bajarish, amalga | 25. Мониторинг ва назорат якунлари бўйича ишлаб чиқилган тавсиялар Корхонанинг коррупцияга қарши курашиш дастурига киритилади.<br>26. Мониторинг ва назорат якунлари бўйича ишлаб чиқилган тавсияларни |

| | |
|---|---|
| oshirilgan ishlar haqida Ichki nazorat tuzilmasiga tegishli ma’lumotlar taqdim etilishi uchun Jamiyat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari shaxsan javobgardir. | бажариш, амалга оширилган ишлар ҳақида Ички назорат тузилмасига тегишли маълумотлар тақдим этилиши учун Корхона таркибий бўлинмалари раҳбарлари шахсан жавобгардир. |

“Maxam-Chirchiq” AJda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga 1-ilova

**“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish TIZIMI**

| T/p | Tekshirish yo’nalishi | Tekshirish tadbirlari |
|---|---|---|
| 1. | Tashkilot xodimlariga odob-ahloq qoidalariga, коррупsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo‘yicha treninglar (onlayn, oflayn) o‘tkazilishining monitoringi | Treninglar muntazamligi, ularni mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo‘yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish. |
| 2. | Korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish | Tashkilot xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o‘tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o‘tishlari natijalarining tahlili;<br>Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo‘ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish;<br>Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish:<br>a) tekshiruvda qatnashish uchun Tashkilot xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so‘rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – Tashkilotda turli tarkibiy bo‘linmalardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni – 6 nafar);<br>b) ichki hujjatlarda ko‘rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo‘yicha (muayyan vaziyatda vazifa – keyslarni hal qilish bilan) savollar ro‘yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin);<br>v) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;<br>g) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushunishda qiyinchiliklarni muhokama qilish. |

“Maxam-Chirchiq” AJda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyotiga 2-ilova

## “Maxam-Chirchiq” AJda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
## JURNALI

| T/r | Monitoring / tadbir turi | Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/ doimiy) | Monitoring / nazoratni o‘tkazish sanasi | Kuzatuvni tafsiloti | Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘g‘rilash choralari | Mas’ul ijrochi | To‘g‘rilanadigan chora-tadbirlarning ijro muddati | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash** | | | | | | | | |
| 1. | Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizim tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi | Doimiy ravishda | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| **Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash** | | | | | | | | |
| 2. | OAV monitoringi | Doimiy ravishda | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| 3. | Tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi | Har yarim yilda | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| 4. | Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat | Har chorakda | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| 5. | Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat | Har chorakda | | | | | | |
| | | | | | | | | |
| | | | | | | | | |